



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



HARUN ABDUR-ROZIQ ASARLARIDA SARF FANIGA E‘TIBOR

Shahnoza Muhitdinova,

*“Alfraganus” universiteti Sharq filologiyasi
kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu tezis arab tilshunosligining muhim bo‘limlaridan biri – sarf ilmining Harun Abdur-Roziq asarlarida qanday yoritilgani tahlil qilinadi. Tezisdan olimning morfologik masalalarga yondashuvi, terminologiyadan foydalanishi, ta‘limiy-uslubiy jihatlari va amaliy qo‘llanishi o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *sarf ilmi, arab tili, morfologiya, Harun Abdur-Roziq, fe‘l va ism shakllari.*

Asosiy qism:

Arab tilida sarf ilmi so‘zlarning shakllanishi va ularning o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganadi. Nahv ilmi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bu fan tilni chuqur o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy arab tilshunosligi orasida misrlik Harun Abdur-Roziq sarf faniga alohida e‘tibor qaratgan olim sifatida ajralib turadi.

Harun Abdur-Roziqning “Durūs fi ‘ilm aş-şarf” asarida sarf ilmining asosiy tushunchalari tizimli va izchil bayon etilgan. U fe‘llarning boblari, masdar turlari, ism fā‘il va ism maf‘ul shakllarini misollar orqali tushuntiradi. Shu bilan birga, asarda murakkab qoidalar soddalashtirilgan holda tushuntiriladi, bu esa talabalarga mustaqil o‘rganishda qulaylik yaratadi.

“Al-Madkhal ilā ‘ilm aş-şarf” asarida sarf ilmi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif so‘z yasalihi, fe‘llarning zamon va shaxs bo‘yicha shakllanishi, masdar va ism turlari kabi masalalarni chuqur yoritadi. Shuningdek, Qur‘on oyatlari va klassik arab matnlaridan dalillar keltirilishi sarf fanining amaliy va nazariy ahamiyatini kuchaytiradi.

Taysīr ‘ilm aş-şarf liṭ-ṭullāb asarida Harun Abdur-Roziq metodik yondashuvni yanada takomillashtiradi. Murakkab qoidalar jadval va sxemalar orqali ifodalangan, bu esa talabalar uchun tushunishni osonlashtiradi. Asarda terminologiya aniq va sodd qilib berilgan, bu esa o‘rganilayotgan mavzuning nazariy va amaliy jihatini uyg‘unlashtiradi.

Olimning asarlarida e‘tiborli jihatlardan biri shundaki, sarf qoidalari nafaqat grammatik bilimni, balki tilning ma‘no nozikliklarini ham ochib beradi. Fe‘llarning aniq va majhul shakllari, ism fā‘il va ism maf‘ul, mubolag‘a sig‘alari kabi masalalar orqali tilni chuqur o‘rganishga imkon yaratadi.

Shuningdek, Harun Abdur-Roziq o‘z asarlarida talabalarga amaliy mashqlar va misollar orqali bilimlarni mustahkamlash imkonini yaratgan. Bu yondashuv arab tilini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan o‘rganishda juda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa:

Harun Abdur-Roziq asarlarida sarf faniga ilmiy, amaliy va metodik yondashuv mavjud. U o‘rganuvchilarga so‘z yasalihi, fe‘l va ism shakllari, masdarlar va murakkab qoidalarni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



sodda va tushunarli tarzda o‘rgatadi. Uning asarlari arab tilini mukammal o‘rganish va morfologik bilimlarni mustahkamlashda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdur-Roziq, Harun. “Durūs fi ‘ilm aş-şarf”. Qohira, 2009.
2. Abdur-Roziq, Harun. “Al-Madkhal ilā ‘ilm aş-şarf”. Qohira, 2011.
3. Abdur-Roziq, Harun. “Taysīr ‘ilm aş-şarf liṭ-ṭullāb”. Qohira, 2013.
4. Ibn Jinniy. “Al-Khaṣā’iṣ. Bayrut” 2003.
5. Al-G‘olāyiniy, Mustafo. “Jāmi‘ ad-durūs al-‘arabiyya”. Qohira, 2011.

